



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI TOSHKENT
SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI**



TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

**2024-yil yanvar-dekabr oylari
uchun dastlabki ma’lumot**

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi:
(71) 203-88-20(21)***



TASHQI SAVDO AYLANMASI

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Toshkent shahrida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-dekabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **25 337,8** mln AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **151,5** mln AQSH dollariga yoki 0,6 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024-yil yanvar-dekabr, mln AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2024-y.: **25 337,8 (+0,6 %)**

(2023-y.: **25 186,3**)



Saldo

2024-y.: **-14 283,2** (2023-y.: **-14 284,6**)




Eksport

2024-y.: **5 527,3 (+1,4 %)**

(2023-y.: **54 50,9**)

TSA'dagi ulushi



Import

2024-y.: **19 810,5 (+0,4 %)**

(2023-y.: **19 735,4**)

TSAda eksport hajmi 5 527,3 mln AQSH dollariga (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 1,4 % ga ko'paydi) va import hajmi 19 810,5 mln AQSH dollariga (0,4 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 14 283,2 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2024-yil yanvar-dekabr, mln AQSH dollari)

Ta'kidlash joizki, Qozog'iston O'zbekistonning eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi (Xitoy va Rossiyadan keyin). Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: umumiy chegaraning mavjudligi, MDHning erkin savdo hududida savdo qilishi hamda so'nggi paytlarda o'zaro iqtisodiy aloqalarning keskin erkinlashtirilishi.

Toshkent shahri jahonning 185 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (24,1 %), XXRda (20,6 %), Qozog'istonda (7,5 %), Turkiyada (5,1 %) va Turkmanistonda (3,6 %) qayd etilgan.

Rossiya	XXR	Qozog'iston	Turkiya	Turkmaniston
TSA – 6116,5	TSA – 5 231,7	TSA – 1 888,0	TSA – 1 300,0	TSA – 907,7
Eksport: 1 105,3 Import: 5 011,2	Eksport: 747,4 Import: 4 484,5	Eksport: 418,5 Import: 1 469,5	Eksport: 395,8 Import: 904,2	Eksport: 39,0 Import: 868,7
 24,1 %	 20,6 %	 7,4 %	 5,1 %	 3,6 %
Germaniya	AQSH	BAA	Afg'oniston	Hindiston
TSA – 666,0	TSA – 566,9	TSA – 484,7	TSA – 474,1	TSA – 466,7
Eksport: 40,1 Import: 625,9	Eksport: 160,2 Import: 406,7	Eksport: 148,9 Import: 335,8	Eksport: 458,2 Import: 15,9	Eksport: 21,0 Import: 445,6
 2,6 %	 2,2 %	 1,9 %	 1,9 %	 1,9 %




TOSHKENT SHAHRINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, mln AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	4 521,3	5 311,9	6 116,5
<i>Eksport</i>	1 039,2	1 280,3	1 105,3
<i>Import</i>	3 485,1	4 031,6	5 011,2
XXR	3 994,0	6 217,8	5 231,7
<i>Eksport</i>	188,4	744,0	747,4
<i>Import</i>	3 205,7	5 473,8	4484,4
Qozog'iston	1 807,1	1 859,4	1 888,0
<i>Eksport</i>	386,2	435,3	418,5
<i>Import</i>	1 420,9	1 424,1	1 469,5
Turkiya	1257,4	1494,0	1300,0
<i>Eksport</i>	333,3	407,1	395,8
<i>Import</i>	924,1	1086,9	904,2
Turkmaniston	551,7	903,3	907,7
<i>Eksport</i>	90,5	102,1	39,0
<i>Import</i>	461,1	801,2	868,7
Germaniya	809,2	623,0	666,0
<i>Eksport</i>	50,7	41,3	40,1
<i>Import</i>	758,5	581,8	625,9
AQSH	363,3	487,9	566,9
<i>Eksport</i>	111,9	180,3	160,2
<i>Import</i>	251,5	307,6	406,7
BAA	456,8	517,1	484,7
<i>Eksport</i>	103,5	209,2	148,9
<i>Import</i>	353,2	308,0	335,8
Hindiston	455,5	407,2	466,7
<i>Eksport</i>	14,0	19,4	21,0
<i>Import</i>	441,5	387,8	445,6
Afg'oniston	349,0	389,7	474,1
<i>Eksport</i>	346,9	385,7	458,2
<i>Import</i>	2,1	4,0	15,9

	Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
	Belarus	301,6	363,2	387,7
	<i>Eksport</i>	62,5	41,5	54,7
	<i>Import</i>	239,1	321,7	333,0
	Litva	239,3	349,0	363,5
	<i>Eksport</i>	40,0	62,9	121,1
	<i>Import</i>	199,3	286,1	242,4
	Koreya Respublikasi	421,2	442,9	387,4
	<i>Eksport</i>	21,4	38,4	24,8
	<i>Import</i>	399,8	404,6	362,7
	Chexiya	120,6	205,8	310,8
	<i>Eksport</i>	24,8	47,7	50,2
	<i>Import</i>	95,8	158,1	260,7
	Tojikiston	289,9	332,9	311,9
	<i>Eksport</i>	232,5	283,1	243,1
	<i>Import</i>	57,4	49,9	68,8
	Buyuk Britaniya	195,6	377,3	305,0
	<i>Eksport</i>	106,5	175,1	139,4
	<i>Import</i>	89,1	202,2	165,6
	Fransiya	225,2	548,8	291,2
	<i>Eksport</i>	5,9	7,5	11,3
	<i>Import</i>	219,4	541,3	279,9
	Qirg'iz Respublikasi	254,2	255,1	267,0
	<i>Eksport</i>	213,7	177,6	191,9
	<i>Import</i>	40,5	77,5	75,1
	Gruziya	123,8	164,8	259,9
	<i>Eksport</i>	29,6	40,4	41,0
	<i>Import</i>	94,3	124,4	218,9
	Italiya	184,7	218,8	236,4
	<i>Eksport</i>	6,4	26,6	15,9
	<i>Import</i>	178,3	192,2	220,5


TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI* (2024-yil yanvar-dekabr, mln AQSH doll.)



Toshkent shahri tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 16,0% ulush bilan 4048,6 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchtepa tumani 1,9% ulush bilan 482,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH dollarida)



2024-yil yanvar-dekabr oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,5 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,6 % ga ko'paydi.

Toshkent shahri bilan savdo qilayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishi mazkur mamlakatlar iste'molchilari tomonidan respublika eksportiga bo'lgan talabning oshishiga olib kelishi mumkin.

Toshkent shahri boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA si 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,6 % ga kamaydi va jami TSA dagi ulushi 59,5 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, 10 269,8 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 2 265,8 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 8 003,9 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



TOSHKENT SHAHRINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024-yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)

Rossiya – 24,1



Qozog'iston – 7,5



Turkmaniston – 3,6



Belarus – 1,5



Tojikiston – 1,2



Qirg'iz
Respublikasi – 1,1



Ozarbayjon – 0,5



Ukraina – 0,5



Armaniston – 0,1




Moldova – 0,01



MDHning erkin savdo hududida savdo qilish Toshkent shahrining umumiy tashqi savdo aylanmasiga ijobiy tas'ir qilmoqda.

Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (24,1 %), Qozog'iston (7,5 %) hamda Turkmaniston (3,6 %) davlatlari bilan qayd etildi.

TOSHKENT SHAHRINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024-yil yanvar-dekabr, mln AQSH dollari)



Toshkent shahrining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 8 677,4 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 1 784,3 mln AQSH dollari, import hajmi esa 6 893,2 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTI

(2024-yil yanvar-dekabr)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, Toshkent shahrining eksportyorlar soni 2165 taga yetdi va ular tomonidan 5 527,3 mln AQSH dollari (nomonetar oltindan tashqari) qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 1,4% ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024-yil yanvar-dekabr)

 **3,9 %**
1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar

 **1,8 %**
2. Ichimliklar va tamaki

 **0,9 %**
3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari

 **5,1 %**
4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar

 **0,1 %**
5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar

 **6,8 %**
6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar

 **16,6 %**
7. Sanoat tovarlari

 **7,6 %**
8. Mashinalar va transport asbob-uskunolari

 **3,3 %**
9. Turli xil tayyor buyumlar

 **0,8 %**
10. Boshqa tovarlar

 **53,1 %**
11. Oltin

 **53,1 %**
12. Xizmatlar

*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning **Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST)** ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA EKSPORTI

TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	5 450,9	5 527,3	116,7	101,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	240,6	215,5	126,3	89,6	4,4	3,9
Ichimliklar va tamaki	85,2	97,4	95,6	114,3	1,6	1,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	55,5	47,2	75,3	85,1	1,0	0,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	194,1	283,0	88,2	145,9	3,6	5,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,6	4,4	25,3	8,0 m.	0,01	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	441,5	374,4	98,8	84,8	8,1	6,8
Sanoat tovarlari	842,1	920,2	99,5	109,3	15,4	16,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	440,2	422,2	127,1	95,9	8,1	7,6
Turli xil tayyor buyumlar	219,8	182,8	141,2	83,1	4,0	3,3
Boshqa tovarlar	47,5	43,6	-	91,7	0,9	0,8
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	2 883,8	2 936,6	125,4	101,8	101,8	53,1


Eksport tarkibida tovarlar ulushi 31,1% ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (16,6%), mashinalar va transport asbob-uskunolari (7,6%) va kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda – tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda – tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,1 % ga kamaygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-dekabr, ulushi %
da, hajmi mln AQSH



2024-yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Fransiya va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 67,3 % ni tashkil etdi.



TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-dekabr)






TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-dekabr)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'рни	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	1280,3	1105,3	123,2	86,3	2	1
XXR	744,0	747,4	94,4	100,5	1	2
Afg'oniston	385,7	458,2	111,2	118,8	69	3
Qozog'iston	435,3	418,5	112,7	96,1	3	4
Turkiya	407,1	395,8	122,2	97,2	4	5
Tojikiston	283,1	243,1	121,7	85,9	43	6
Qirg'iz Respublikasi	177,6	191,9	83,1	108,0	31	7
AQSH	180,3	160,2	161,2	88,8	12	8
Gonkong	14,3	159,7	2,8 m.	11,2 b.	42	9
BAA	209,2	148,9	202,0	71,2	11	10
Buyuk Biritaniya	175,1	139,4	164,4	79,6	15	11
Litva	62,9	121,1	157,3	192,5	13	12
Ozarbajjon	56,9	84,9	93,1	149,2	48	13
Latviya	62,4	65,4	106,5	104,7	20	14
Kanada	39,2	60,9	166,3	155,3	58	15
Belarus	41,5	54,7	66,3	131,9	10	16
Chexiya	47,7	50,2	192,0	105,2	19	17
Gruziya	40,4	41,0	136,7	101,4	24	18
Germaniya	41,3	40,1	81,4	97,2	6	19
Shveysariya	59,4	39,0	176,4	65,7	14	20

TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI *

(2024-yil yanvar-dekabr, mln AQSH doll.)



2024-yil yanvar-dekabr

2023-yil yanvar-dekabr

Toshkent shahar eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 22,3 % bilan 1 230,8 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchtepa tumani 0,7 % bilan 37,8 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



TOSHKENT SHAHRINING IMPORTI

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 19 810,5 mln AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,4 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (26,4 %), sanoat tovarlari (15,6 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (13,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024-yil yanvar-dekabr)



9,5 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



1,2 %

2. Ichimliklar va tamaki



1,3 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



13,5 %

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



1,0 %

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



13,8 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



15,6 %

7. Sanoat tovarlari



26,4 %

8. Mashinalar va transport asbob-uskunolari



5,1 %

9. Turli xil tayyor buyumlar



4,0 %

10. Boshqa tovarlar



8,7 %

11. Xizmatlar

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,1 mln AQSH dollariga ko'paydi va 19 810,5 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1 724,0 mln AQSH dollariga yetdi.

*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	19735,4	19810,5	132,1	100,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1732,1	1877,8	107,3	108,4	8,8	9,5
Ichimliklar va tamaki	181,5	229,9	137,3	126,7	0,9	1,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	256,3	252,7	95,9	98,6	1,3	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 688,0	2682,0	197,0	158,9	8,6	13,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	221,5	196,0	95,9	88,5	1,1	1,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2720,1	2729,8	100,7	100,4	13,8	13,8
Sanoat tovarlari	3250,0	3081,3	110,6	94,8	16,5	15,6
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	5991,3	5233,2	138,7	87,3	30,4	26,4
Turli xil tayyor buyumlar	973,4	1015,3	1108,7	104,3	4,9	5,1
Boshqa tovarlar	1092,9	788,6	-	72,2	5,5	4,0
Xizmatlar	1628,3	1724,0	165,5	105,9	8,3	8,7

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024-yil yanvar-dekabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 40,4 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 16,7 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-dekabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH dollarida)



2024-yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida 169 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Turkmaniston, Germaniya va Hindiston) jami importning 69,7 % ni tashkil etdi.



TOSHKENT SHAHRINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-dekabr)






TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-dekabr)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	4031,6	5011,2	115,7	124,3	2	1
XXR	5473,8	4484,4	170,8	81,9	1	2
Qozog'iston	1424,1	1469,5	100,2	103,2	3	3
Turkiya	1086,9	904,2	117,6	83,2	4	4
Turkmaniston	801,2	868,7	173,8	108,4	5	5
Germaniya	581,8	625,9	76,7	107,6	6	6
Hindiston	387,8	445,6	87,8	114,9	9	7
AQSH	307,6	406,7	122,3	132,2	12	8
Koreya Respublikasi	404,6	362,7	101,2	89,6	8	9
BAA	308,0	335,8	87,2	109,0	11	10
Belarus	321,7	333,0	134,5	103,5	10	11
Fransiya	541,3	279,9	246,7	51,7	7	12
Chexiya	158,1	260,7	165,0	164,9	19	13
Litva	286,1	242,4	143,5	84,7	13	14
Italiya	192,2	220,5	107,8	114,7	16	15
Gruziya	124,4	218,9	132,0	175,9	24	16
Polsha	188,5	189,4	178,7	100,5	17	17
Yaponiya	65,8	179,5	104,2	273,0	35	18
Irlandiya	202,2	165,6	227,0	81,9	15	19
Avstriya	100,7	162,9	176,5	161,8	27	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI HAJMI (2024-yil yanvar-dekabr, mln AQSH doll.)



Toshkent shahrining importi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 14,2 % bilan 2 817,9 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchtepa tumani 2,2 % bilan 444,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi.